

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar - avgust

Raqamlar:

- 2018 yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi – 3455,4 mlrd. so`m tashkil etdi.
- Jami xizmatlarning o'sish sur'ati 108,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1367,9 ming so'mni tashkil etdi.


Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilmalil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 3455,4 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlarida kuzatilmoqda.


Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (41,4 %), transport xizmatlari (17,9 %), moliyaviy xizmatlari (11,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,8 %), shaxsiy xizmatlar (3,3 %) va kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (3,2 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisdating moliyaviy xizmatlar (146,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (131,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (110,0 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar(109,1%) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.



Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib Respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

**2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**

	Hajmi, mlrd,so`m	O'tgan yilga nisbatan o'sish su'rori %
Xizmatlar - jami	3455,4	108,9
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	227,5	112,7
Moliyaviy xizmatlar	402,2	146,3
Transport xizmatlari	616,7	102,4
shu jumladan avtotransport xizmati	595,7	102,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	129,5	108,2
Savdo xizmatlari	1431,8	104,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	105,2	103,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	83,9	131,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	36,1	110,0
Ijara xizmatlari	94,1	121,7
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	109,9	101,8
Shaxsiy xizmatlar	113,9	102,3
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	23,7	109,1
Boshqa xizmatlar	80,9	98,4

2018 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1367,9 ming so'mga teng bo'ldi, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 106,6 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar- avgust oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari



*Viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi*

Mas`ul: P.Eshboeva

(71) 230-85-85